Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 48-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48

O‘ZBEKISTONDA KIRUVCHI TURIZMNING MAKROIQTISODIY TA’SIRI VA UNI DINAMIK PANEL MODEL ASOSIDA PROGNOZLASH

JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Statistika” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD)
E-mail: jumayevabduakbar@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8935-032X15:49

Annotatsiya. Maqolada kiruvchi turizmning milliy iqtisodiyotga ta’siri turizm yordamchi hisobi ko‘rsatkichlari asosida baholangan va 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun ehtimoliy prognoz ishlab chiqilgan. Turizm tarmoqlari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm yalpi qo‘shilgan qiymatini farqlash zarurligi asoslangan: 2024-yilda ularning nisbati 3,8 ga teng bo‘lgan. Qolish muddatini uzaytirish samarasini baholash formulasi taklif etilgan, unga ko‘ra qolish muddatini bir kechaga uzaytirish kirish turizmi iste’molini 3,19 trln so‘mga (9,4%) oshiradi. Respublika bo‘yicha yillik qator qisqa va tarkibiy uzilishlarga ega bo‘lgani sababli 194 mamlakat bo‘yicha 2 134 kuzatuvga asoslangan dinamik panel gravitatsiya modeli qo‘llanilgan. Model namunadan tashqari davrda 1,0 foizlik xatolik bilan ARIMA (33,6%) va dreyfli tasodifiy sayr (5,4%) modellaridan aniqroq natija bergan. Prognozga ko‘ra, 2030-yilda kiruvchi turistlar soni 18,9 mln kishiga yetadi, “20 mln turist” maqsadiga erishish ehtimoli 47,6 foizni tashkil etadi.
Kalit so‘zlar: kiruvchi turizm, turizm yordamchi hisobi, qolish muddati, dinamik panel model, prognozlash, namunadan tashqari tekshiruv, simulyatsiya, ARIMA.

Аннотация. В статье оценено влияние въездного туризма на национальную экономику на основе показателей вспомогательного счета туризма и разработан вероятностный прогноз на период до 2030 года. Обоснована необходимость разграничения валовой добавленной стоимости туристских отраслей и прямой туристской валовой добавленной стоимости: в 2024 году их соотношение составило 3,8. Предложена формула оценки эффекта увеличения продолжительности пребывания, согласно которой ее увеличение на одну ночь повышает потребление въездного туризма на 3,19 трлн сумов (9,4 %). Поскольку годовой республиканский ряд короток и имеет структурные разрывы, применена динамическая панельная гравитационная модель на основе 2 134 наблюдений по 194 странам. Вне выборки модель с ошибкой 1,0 % оказалась точнее моделей ARIMA (33,6 %) и случайного блуждания с дрейфом (5,4 %). Согласно прогнозу, в 2030 году число въездных туристов достигнет 18,9 млн человек, а вероятность достижения цели «20 млн туристов» составляет 47,6 %.
Ключевые слова: въездной туризм, вспомогательный счет туризма, продолжительность пребывания, динамическая панельная модель, прогнозирование, проверка вне выборки, имитационное моделирование, ARIMA.

Abstract. The article assesses the impact of inbound tourism on the national economy using Tourism Satellite Account indicators and develops a probabilistic forecast up to 2030. It argues that gross value added of tourism industries must be distinguished from tourism direct gross value added: in 2024 their ratio was 3.8. A formula for the effect of extending the length of stay is proposed; extending the stay by one night raises inbound tourism consumption by UZS 3.19 trillion (9.4%). Because the annual national series is short and has structural breaks, a dynamic panel gravity model based on 2,134 observations for 194 countries is used. Out of sample, the model with an error of 1.0% outperformed ARIMA (33.6%) and a random walk with drift (5.4%). The number of inbound tourists is forecast to reach 18.9 million in 2030, and the probability of achieving the target of 20 million tourists is 47.6%.
Keywords: inbound tourism, tourism satellite account, length of stay, dynamic panel model, forecasting, out-of-sample evaluation, simulation, ARIMA.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

KIRISH

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish dasturlarida 2030-yilga qadar kiruvchi turistlar sonini 20 mln kishiga yetkazish maqsadi belgilangan [1, 2]. Bunday maqsadli ko‘rsatkichlar ikki savolni tug‘diradi: turistlar sonining o‘sishi iqtisodiyotga qanday ta’sir ko‘rsatadi va mavjud tendensiyalar saqlanganda maqsadga erishish ehtimoli qanday? Birinchi savolga javob turizm yordamchi hisobi (TYoH) ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri talqin qilishni, ikkinchisi esa ishonchlilik darajasi ko‘rsatilgan prognozni talab etadi.

Maqolaning maqsadi – kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’sirini TYoH asosida baholash, qolish muddatini uzaytirish samarasini aniqlash va 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun ehtimoliy prognoz ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizmning iqtisodiy hissasini o‘lchashning xalqaro standarti TYoH hisoblanadi [3]; D.Frechtling uning asosiy ko‘rsatkichlarini tizimlashtirgan [4], E.Smeral esa TYoH ko‘rsatkichlarini talqin qilishdagi xatolarga e’tibor qaratgan[5]. L.Dvayer va hammualliflar turizmning iqtisodiy ta’sirini baholash yondashuvlarini taqqoslagan [6], D.Vu va hammualliflar pandemiya sharoitida ichki turizmning iqtisodiyotga ta’sirini TYoH asosida baholagan [7]. Turizm va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik J.Balaguer va M.Kantavella-Xorda, N.Dritsakis va C.O.Oh ishlarida o‘rganilgan [8, 9, 10].

Turizm talabini prognozlash bo‘yicha keng ko‘lamli adabiyot mavjud [11, 12, 13]. G.Atanasopulos va hammualliflar o‘tkazgan xalqaro prognozlar musobaqasi yillik ma’lumotlar uchun sodda modellardan aniqroq natija beradigan modelni topish qiyinligini ko‘rsatgan [14]. Vaqt qatorlari modellarining asoslari J.Boks va G.Jenkins [15], zamonaviy prognozlash amaliyoti esa R.Xindman va G.Atanasopulos ishlarida bayon etilgan [16]. Ekonometrik prognoz modellari H.Song, S.Vitt va G.Li tomonidan tizimlashtirilgan [17, 18]. T.Garin-Munos Kanar orollari misolida turizm talabini dinamik panel model asosida baholagan [19], dinamik panel modellarini baholash usullari esa M.Arellano, S.Bond va R.Blandell ishlarida ishlab chiqilgan [20, 21, 22]. Muallifning oldingi ishlarida turistlar oqimining mavsumiyligi va modellashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan [23, 24].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Makroiqtisodiy ta’sirni baholashda Milliy statistika qo‘mitasining 2019–2024-yillar uchun TYoH ko‘rsatkichlari qo‘llanildi [25]. Qolish muddatini uzaytirish samarasi quyidagicha baholandi:

$$\Delta C = T_N \cdot \Delta L \cdot p \cdot (1 + r) \qquad (1)$$

bu yerda T_N – joylashtirish vositalaridan foydalanuvchi turistlar soni; ΔL – qolish muddatining o‘zgarishi (kecha); p – bir kechalik joylashtirish xizmati qiymati; r – kirish turizmi iste’molida ovqatlanish xizmatlarining joylashtirish xizmatlariga nisbati. Respublika bo‘yicha yillik qatorda atigi 14 ta kuzatuv va ikkita tarkibiy uzilish mavjudligi sababli prognozlash uchun ARDL(1,0) tuzilmasiga ega dinamik panel gravitatsiya modeli qo‘llanildi:

$$T_{jt} = \exp\left(\alpha + \rho \ln\left(1 + T_{j,t-1}\right) + \beta' X_j + \gamma_1 COVID_t + \gamma_2 REC_t\right) \cdot \varepsilon_{jt} \quad (2)$$

$$\beta_{\text{LR}} = \frac{\beta}{1-\rho} \quad (3)$$

bu yerda ρ – oqimning inersiya koeffitsiyenti; X_j – tarkibiy omillar; $COVID_t$ va REC_t – pandemiya va tiklanish belgilari. Model Puasson psevdo-maksimal haqiqatga o‘xshashlik usulida baholandi [26]. Prognoz aniqligi 2022-yilgacha bo‘lgan ma’lumotlarda baholangan modelning 2023–2025-yillardagi rekursiv prognozlari asosida o‘rtacha mutlaq foizli xato orqali tekshirildi:

$$MAPE = \frac{1}{H}\sum_t \frac{|\hat{T}_t - T_t|}{T_t} \cdot 100\% \quad (4)$$

Prognoz noaniqligi koeffitsiyentlarning ko‘p o‘lchovli normal taqsimotidan 500 marta takroriy tanlab olish (simulyatsiya) asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

TYoH ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda turizm tarmoqlari YQQ YaIMning 9,2 foizini, to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm YQQ esa 2,4 foizini tashkil etgan. Ularning nisbati 3,80 ga teng, ya’ni turizm tarmoqlarida yaratilgan har 3,8 so‘m qo‘shilgan qiymatdan faqat 1 so‘mi bevosita tashrif buyuruvchilar iste’moliga to‘g‘ri keladi. Demak, turizmning iqtisodiyotdagi o‘rnini turizm tarmoqlari YQQ bo‘yicha baholash uni bir necha baravar oshirib ko‘rsatadi. Kirish turizmi iste’moli 2019–2024-yillarda 2,9 baravar, bir turistga to‘g‘ri keladigan iste’mol esa 1,72 mln so‘mdan 4,28 mln so‘mgacha oshgan.

Mehmonxonalarda o‘rtacha qolish muddati 2019-yildagi 2,21 kechadan 2024-yilda 1,81 kechagacha qisqargan. Bir kechalik joylashtirish xizmati qiymati 0,93 mln so‘mni, ovqatlanish va joylashtirish xizmatlari nisbati 0,845 ni tashkil etgani holda, 1 851,9 ming turistning qolish muddati bir kechaga uzaytirilsa, kirish turizmi iste’moli 3,19 trln so‘mga yoki 9,4 foizga ortadi. Shunday samaraga erishish uchun turistlar sonini qo‘shimcha 0,7–0,8 mln kishiga oshirish talab etilgan bo‘lar edi.

Dinamik panel modelida inersiya koeffitsiyenti ρ = 0,773 ga teng bo‘ldi: bir yilgi o‘zgarishning qariyb 77 foizi keyingi yilga o‘tadi. Modelning prognoz aniqligi quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Prognoz modellarining namunadan tashqari aniqligini tekshirish natijalari, ming kishi

Yil	Haqiqiy qiymat	Dinamik panel model	Xato, %	Dreyfli tasodifiy sayr	Xato, %	ARIMA (1,1,0)	Xato, %
2023	6 624,2	6 530,5	−1,4	6 274	−5,3	4 847,3	−26,8
2024	7 954,6	7 905,6	−0,6	7 522	−5,4	4 746,5	−40,3
2025	11 676,6	9 269,4	−20,6	9 018	−22,8	4 719,1	−59,6
MAPE (2023–2024), %	–	–	1,0	–	5,4	–	33,6

Muallif hisob-kitoblari (O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida).
Izoh: haqiqiy qiymatlar mamlakatlar bo‘yicha ma’lumotlar yig‘indisi sifatida olingan va rasmiy respublika ko‘rsatkichidan 0,1 foizdan kam farq qiladi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

Jadvalga ko‘ra, dinamik panel modelning 2023–2024-yillardagi o‘rtacha mutlaq foizli xatosi 1,0 foizni tashkil etib, dreyfli tasodifiy sayr (5,4%) va ARIMA (33,6%) modellaridan aniqroq bo‘ldi. Bu G.Atanasopulos va hammualliflarning sodda modellarni yengish qiyinligi haqidagi xulosasiga [14] qaramay, mamlakatlar bo‘yicha panel ma’lumotlardan foydalanish qisqa qatorlar sharoitida aniqlikni oshirishini ko‘rsatadi. 2025-yildagi 46,8 foizlik o‘sishni hech bir model oldindan ko‘ra olmadi, shu sababli prognoz 2025-yildagi haqiqiy darajadan boshlab tuzildi. Prognoz natijalari 1-rasmda keltirilgan.



Muallif hisob-kitoblari (O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida).

1-rasm. Kiruvchi turistlar soni va uning 2030-yilgacha prognozi, mln.kishi

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, mavjud tendensiyalar saqlanganda kiruvchi turistlar soni 2026-yilda 13,2 mln, 2030-yilda 18,9 mln kishiga yetadi, 2030-yil uchun 80 foizli prognoz oralig‘i esa 15,0–30,1 mln kishini tashkil etadi. Kirish turizmi iste’moli 2030-yilda 81,0 trln so‘mga yetadi. Simulyatsiya natijalariga ko‘ra, “20 mln turist” maqsadiga erishish ehtimoli 47,6 foizni tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, turizmning iqtisodiyotdagi o‘rnini baholashda turizm tarmoqlari YQQ va to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm YQQni aniq farqlash zarur, aks holda turizm hissasi bir necha baravar oshirib ko‘rsatiladi. Ikkinchidan, qolish muddatini uzaytirish turistlar sonini oshirish bilan teng darajada samarali yo‘nalish hisoblanadi. Uchinchidan, qisqa yillik qatorlar sharoitida mamlakatlar bo‘yicha dinamik panel model ishonchli prognoz vositasi bo‘lib, u prognozni ehtimollik oralig‘i bilan birga taqdim etish imkonini beradi.

Turizm siyosatida turistlar soni bilan bir qatorda sifat ko‘rsatkichlari – bir turistga to‘g‘ri keladigan iste’mol, qolish muddati va dam olish maqsadidagi tashriflar ulushini maqsadli ko‘rsatkich sifatida belgilash tavsiya etiladi. Milliy statistika qo‘mitasiga chegara statistikasi asosida turistlarning mamlakatda

qolish muddatini hisoblash va e'lon qilish, Turizm qo'mitasiga esa ko'p kunlik va hududlararo turistik marshrutlarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. Turizm sohasini rivojlantirish maqsadida 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar hamda 2025-yildagi ustuvor vazifalar; 2025-yilda turizm sohasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumot.

3. United Nations, World Tourism Organization, Eurostat, OECD. Tourism Satellite Account: Recommended Methodological Framework 2008. – Luxembourg, Madrid, New York, Paris, 2010. – (Studies in Methods, Series F, No. 80/Rev.1).

4. Frechtling D.C. The tourism satellite account: A primer // Annals of Tourism Research. – 2010. – Vol. 37, No. 1. – P. 136–153.

5. Smeral E. Tourism satellite accounts: A critical assessment // Journal of Travel Research. – 2006. – Vol. 45, No. 1. – P. 92–98.

6. Dwyer L., Forsyth P., Spurr R. Evaluating tourism's economic effects: new and old approaches // Tourism Management. – 2004. – Vol. 25, No. 3. – P. 307–317.

7. Wu D.C., Cao C., Liu W., Chen J.L. Impact of domestic tourism on economy under COVID-19: The perspective of tourism satellite accounts // Annals of Tourism Research Empirical Insights. – 2022. – Vol. 3. – 100055.

8. Balaguer J., Cantavella-Jordá M. Tourism as a long-run economic growth factor: the Spanish case // Applied Economics. – 2002. – Vol. 34, No. 7. – P. 877–884.

9. Dritsakis N. Tourism as a long-run economic growth factor: an empirical investigation for Greece using causality analysis // Tourism Economics. – 2004. – Vol. 10, No. 3. – P. 305–316.

10. Oh C.-O. The contribution of tourism development to economic growth in the Korean economy // Tourism Management. – 2005. – Vol. 26, No. 1. – P. 39–44.

11. Song H., Li G. Tourism demand modelling and forecasting – A review of recent research // Tourism Management. – 2008. – Vol. 29, No. 2. – P. 203–220.

12. Song H., Qiu R.T.R., Park J. A review of research on tourism demand forecasting // Annals of Tourism Research. – 2019. – Vol. 75. – P. 338–362.

13. Witt S.F., Witt C.A. Forecasting tourism demand: A review of empirical research // International Journal of Forecasting. – 1995. – Vol. 11, No. 3. – P. 447–475.

14. Athanasopoulos G., Hyndman R.J., Song H., Wu D.C. The tourism forecasting competition // International Journal of Forecasting. – 2011. – Vol. 27, No. 3. – P. 822–844.

15. Box G.E.P., Jenkins G.M. Time Series Analysis: Forecasting and Control. – San Francisco: Holden-Day, 1970.

16. Hyndman R.J., Athanasopoulos G. Forecasting: Principles and Practice. 3rd ed. – Melbourne: OTexts, 2021.

17. Li G., Song H., Witt S.F. Recent developments in econometric modeling and forecasting // Journal of Travel Research. – 2005. – Vol. 44, No. 1. – P. 82–99.

18. Song H., Witt S.F. Tourism Demand Modelling and Forecasting: Modern Econometric Approaches. – Oxford: Pergamon, 2000.

19. Garín-Muñoz T. Inbound international tourism to Canary Islands: a dynamic panel data model // Tourism Management. – 2006. – Vol. 27, No. 2. – P. 281–291.

20. Arellano M., Bond S. Some tests of specification for panel data: Monte Carlo evidence and an application to employment equations // The Review of Economic Studies. – 1991. – Vol. 58, No. 2. – P. 277–297.

21. Blundell R., Bond S. Initial conditions and moment restrictions in dynamic panel data models // Journal of Econometrics. – 1998. – Vol. 87, No. 1. – P. 115–143.

22. Baltagi B.H. Econometric Analysis of Panel Data. 6th ed. – Cham: Springer, 2021.

23. Jumayev A. va boshq. Mathematical modeling and forecasting of seasonal characteristics of tourist flow // E3S Web of Conferences. – 2021. – Vol. 264. – 01042.

24. Jumayev A.M. O‘zbekiston Respublikasida turistlar oqimi jarayonlarini modellashtirish // O‘zbekiston statistika axborotnomasi. – 2019. – № 1.

25. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sayti va ochiq ma’lumotlar portali. – URL: https://stat.uz

26. Santos Silva J.M.C., Tenreyro S. The log of gravity // The Review of Economics and Statistics. – 2006. – Vol. 88, No. 4. – P. 641–658.

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy